

**Qazilma organizmlar qoldiqlari**

Begmatova Taxmina Sunnat qizi

+998998111510tahminakadorova@gmail.com


Annotatsiya: Qazilma organizmlar qoldiqlari, ularning saqlanish tarixlari haqida ma'lumotlar, qadimiy geologik davrlardagi o'simliklarning qoldiqlari haqida tavsiflar

Kalit so'zlar: Paleobotanik tadqiqotlar, geologik davr, kutikula, kaltsit, limonit, amorfli kremnezyom, siderite, psilofitsimonlar, bennettitlar, lepidodendronlar, psevdomorfoza, mamontlar

O'zbekiston florasini paydo bo'lishi, tarqalishi, tur, turkum va oilalarining umumiy o'xshashligi jihatidan Markaziy Osiyodagi boshqa mamlakatlar, xususan, Eron, Afg'oniston o'simliklari dunyosiga juda yaqin turadi. O'zbekiston florasini uzoq tarixga ega. Paleobotanik tadqiqotlar respublika xududida quruqlikdagi yuksak o'simliklarning (ksilofitlardan tortib) barcha evolyutsion davrlarga oid o'simlik qoldiqlari borligini ko'rsatdi. Hatto hozirgi Qizilqum cho'llaridan bir vaqtlar bu yerlarda o'sgan xurmo, chinor, terak kabi daraxt va butalarning qoldiqlari topilgan.

Qazilma organizmlar qoldiqlari, toshqotganlik — o'tgan geologik davrlarda yashagan organizmlarning cho'kindi tog' jinslarida saqlanib qolgan hayot faoliyati izlari va qoldiqlari. Ularga qarab cho'kindi tog' jinslarining nisbiy yoshi aniqlanadi. Qazilma organizmlar qoldiqlarining turli xil saqlanish shakllari ma'lum. O'simliklar, ayniqsa, yiriklari, tog' jinslarida butunligicha ko'milib qolmaydi; ulardan bo'linib ketgan barglar, shoxlarning uzilgan qismlari, o'simliklar tanasining bo'laklari, mevalari, alohida urug'lari va kamdankam gul izlari saqlanib qoladi. Oksidlanish jarayoni ta'sirida organik moddalar yo'qolib, tog' jinslarida o'simliklarning faqatgina izlari qoladi va ularda ba'zan ko'mirga aylangan yupqa po'st (kutikula) saqlanadi; kimyoviy reagentlar bilan ishlov berilgandan so'ng mikroskop ostida epiderma va og'izchalarning katakli tuzilishi ko'rinadi. Ba'zan o'simlik qoldiqlarini turli xil minerallar (kaltsit, limonit, amorfli kremnezyom, siderit va boshqalar) bilan o'rin almashishi sodir bo'ladi. Bu tosh qotganlikda o'simliklar anatomik strukturasi saqlanib qoladi, ular fan uchun juda qimmatlidir.


Yer po'sti yotqiziqlarida saqlanib qolgan qadimiy geologik davrlardagi o'simliklarning qoldiqlari. Qazilma o'simliklarni paleobotanika fani o'rganadi. Butun holda tuban o'simliklar (suvo'tlar va bakteriyalar), yuksak o'simliklardan yo'sinlar, ba'zi mayda o'simliklar, yirik yuksak o'simliklardan ularning bo'lak-bo'lak qismlari (tanasi, po'stlog'i, bargi, guli, mevasi, urug'i, sporasi, gulchang donalari va boshqalar)





saqlangan. Ko‘pincha qazilma qoldiqlar orasida suv havzalari yonida o‘sgan yog‘ochsimon o‘simlik va suvo‘tlarning qismlari uchraydi. Qazilma o‘simliklar odatda, botqoqlik, ko‘l, daryo yotqiziqlarida hamda manbalarning ohakli va kremniyli yotqiziqlarida va dengiz sohili yotqiziqlarida qazilma hayvonlar bilan birga uchraydi. Qoldiqlarning saqlanish darajasi Qazilma o‘simliklarni o‘zida mujassamlashtirgan tog‘ jinslarining geologik yoshiga ham bog‘liq. Qazilma o‘simliklar strukturasi yemirilmay anatomik tuzilishi (masalan, o‘simliklarning urug‘i, danagi, yog‘ochi, changi, bargining epidermisi va igna barglilarning qubbasi va boshqalar) saqlanib, o‘simlik to‘qimalarining kimyoviy tarkibi birmuncha o‘zgargan holda va o‘simlik qoldig‘i butunlay yo‘qolib, tog‘ jinslari orasida, ularning faqat izlari yoki har xil minerallar bilan to‘lgan shakllari sakdangan holda uchraydi. Qazilma o‘simliklarning bir nechta katta bo‘limlari, tiplari (masalan, psilofitsimonlar, bennettitlar, lepidodendronlar va boshqalar) ma‘lum. Qazilma o‘simliklarni o‘rganish o‘tmishda Yer yuzini qoplagan o‘simliklarning tarqalishi va tarkibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni beradi hamda o‘simliklar evolyutsiyasi etapini belgilaydi. Qazilma o‘simliklar sanoatda foydalaniladigan qazilmalarning (torf, qo‘ng‘ir ko‘mir va toshko‘mir, yonuvchi slanetslar) to‘plamlarini hosil qiladi. O‘rta Osiyo hududida karbon davrida yevromeriy tipdagi flora mavjud bo‘lgan. Yura florasining vakillari O‘zbekistonda, masalan, Ohangaron, Sho‘rob, Sulukta va Sharg‘undagi ko‘mir konlari hosil bo‘lishida katta rol o‘ynagan.

Organizmlar hosil bo‘lish jarayonini o‘rganuvchi bo‘limi tafonomiya deb ataladi. Hayvonlarning faqat skeletlarigina emas, balki yumshoq to‘qimalarining tuzilishi to‘g‘risida ham xulosa chiqarishga imkon beruvchi butun jasadlari yoki ularning bo‘laklari antropogen yotqiziqlaridagina saqlanib qolgan. Hayvonlarning yaxshi saqlangan qoldiqlari (mamontlar, baliqlar va boshqalar) abadiy muzloq yer oblastlarida va ba‘zan uyumlarni tashkil qiluvchi tabiiy asfaltsimon modda — ozokeritda qolgan bo‘ladi. Mumiyoga aylangan qoldiqlar ham organizmlar to‘g‘risida ma‘lumot beradi. Toshqotishlikning tez-tez sodir bo‘lishi — qachonki organizmlar qoldiqlaridagi g‘ovaklar suvli eritmalaridan cho‘kkan mineral moddalar bilan to‘lganda; o‘sha skeletning moddasi ham o‘z strukturasi saqlagan holda (pseudomorfoza) ular bilan almashtiriladi. Qazilma organizmlar qoldiqlariq. minerallashish jarayoni fossilizatsiya deyiladi. Jinslarda, xitin skeletli umurtqasizlardan yupqa ko‘mirga aylangan qatlamchalar qoladi.





Foydalanilgan adabiyotlar:

- А.Хамидов „О’симликлар географияси ва ботаникаси (Тошкент 1984.
Ҳожиматов Қ. Оллоёров М. „О’збекистон шифобахш о’симliklari va ularni muhofaza etish” (Тошкент 1988).
Турсунов.Х.Т, РахмоновТ.У. „Ekolgiya “ (Тошкент 2006.-yil)
Х.К. Хайдаров. “Botanika fanidan o’quv dala amaliyoti uchun, (Тошкент 2015)
А.Солиев. „Узбекистон географияси” (Тошкент 2014)

